

YAPONIYA IQTISODIYOTI RIVOJLANISH BOSQICHLARINING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Yaponiya iqtisodiyoti rivojlanish bosqichlarining xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Bundan tashqari, Yaponiya iqtisodiyotining hozirgi holati tahlil qilingan va istiqboldagi iqtisodiy o'sishning yo'llari ko'rsatilgan.

Аннотация

В статье анализируются этапы развития японской экономики. Кроме того, выявлены особенности текущего состояния экономики страны и направления экономического роста Японии в будущем.

Annotation

The article analyzes the stages of development of the Japanese economy. In addition, the features of the current state of the country's economy and the direction of Japan's economic growth in the future are revealed.

Kalit so'zlar: "Yapon modeli", Dodj rejasi, tez taraqqiyot, iqtisodiy mo'jiza, Abenomika.

Ключевые слова: Модель Япония, план Доджа, быстрое развитие, экономическое чудо, Абеномика.

Key words: Japane's model, Dodj's plan, the fast development, the economic miracle, Abenomica.

Har qanday davlat o'z ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti turli shart-sharoitlar va omillar ta'sirida ro'y beradi. Ayrim mamlakatlar yirik davlatlar ta'sirida va ularning ko'magida taraqqiy topsa, boshqalari o'zining ichki imkoniyatlaridan to'la va samarali foydalanib taraqqiyotning yuqori cho'qqilariga chiqib olishi ham mumkin. Yaponiya uchun har ikkala yo'l ham xos hisoblanadi.

Yaponiya ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining "yapon modeli" nomi bilan dunyoga tanilishi asosan 2-jahon urushidan keyingi davrga to'g'ri keladi. Mana shu davrdan keyingi rivojlanishini ko'pchilik mutaxassislar quyidagi davrlarga ajratib ko'rsatishadi:

- 1-bosqich - 1945-1969 yillar.
- 2-bosqich - 1970-1989 yillar.
- 3-bosqich - 1990-2000-yillar oxiri.
- 4-bosqich - 2010-yillardan hozirgacha.

Mana shu bosqichlar uchun asosiy mezon sifatida jahondagi umumiy iqtisodiy vaziyat hamda tendensiyalarning davrlararo o'zgarishi, ishlab chiqarish shart-sharoitlarining har xilligi, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalardagi sifat o'zgarishlari olingan.


1-bosqich. Yaponiyaning Ikkinchi jahon urushidagi mag'lubiyatidan so'ng Ittifoqchi qo'shinlar oliy shtabi iqtisodiy islohotlar yo'nalishlarini belgilab berdi. AQSHning Yaponiyadagi okkupatsion hukumati maslahatchisi Djozef Dobj tomonidan taklif etilgan "Dobj rejasi"ga (1949-1950 yillar) muvofiq, Yaponiya iqtisodiyotini qayta tiklash uchun istiqbolli ishlab chiqarish tizimi joriy etildi². Bunday ishlab chiqarish tarmoqlariga qora metallurgiya, toshko'mir sanoati, elektroenergetika, temir yo'l va dengiz transporti kabilar kiritildi.

Bu tarmoqlarni rivojlantirishda to'g'ridan-to'g'ri nazorat metodlari (past narxlarning belgilab qo'yilishi, narxlar orasidagi farqni kompensatsiya qilish, imtiyozli kreditlash, import tovarlarini kvotalash) qo'llanildi. Shuningdek, soliqlar oshirilib, inflyatsiya darajasini kamaytirish maqsadi qo'yildi. Natijada Yaponiyada davlat byudjetining profitsit bilan bajarilishiga erishildi³.

Agrar islohotlar feodal yer egalik shaklini bekor qildi. Antimonopol chora-tadbirlar Yaponiya konsernlari tuzilmalarining qayta qurilishiga olib keldi. Urushdan voz kechish siyosati esa mamlakat harbiy xarajatlarining jahon bo'yicha eng minimal darajada, ya'ni YaIMga nisbatan 1 foiz atrofida qolishiga turtki berdi. Yuqorida sanab o'tilgan omillar Yaponiya iqtisodiyotining qayta tiklanishida hal qiluvchi rol o'ynadi. Bu davr iqtisodiyotning mehnat va kapital sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlarini rivojlantirishga urinish bilan ham tavsiflanadi. Urushdan keyin iqtisodiy rivojlanish mineral-xom ashyo resurslariga past narxlar belgilanishi sharoitida yuz bera boshladi.

1.1-diagramma.

Yaponiya YaIM dinamikasi, joriy narxlarda, AQSH dollarida



Manbaa. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, 2013

² Лебедева И.П., Тимонина И.Л. Экономика Японии. «Восточная литература», - М.: 2008, 15-bet.

³ Мировая кризис и Япония / Рук. Проекта Э.В. Молякова. - М., АИРО-XXI. 2009. - 256 с.

Bu Yaponiyaga importga tayanib rangli va qora metallurgiya, neftni qayta ishlash, kemasozlik va shu kabi energiya, resurs va kapital sig'imi yuqori bo'lgan sanoat tarmoqlarini barpo etish imkonini berdi. Masalan, 1953-1971-yillar oralig'ida qayta ishlash sanoati 10,6 marta, mashinasozlik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish 24,9 marta, neft mahsulotlari va toshko'mir ishlab chiqarish 19,3 marta, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 12 marta hamda po'lat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 10 martaga oshdi. Kapital sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlarning rivojlanishi natijasida ish bilan bandlik va aholining turmush darajasi ko'tarildi. Qog'oz, radiotexnika, avtomobil kabi mehnat sig'imi yuqori sanoat tarmoqlari ham yonma-yon ravishda rivojlandi.

1964-1973-yillarda iqtisodiy o'sish sur'ati oldingi yillarga nisbatan yanada jadallashdi. Mamlakatning 1964-1973-yillardagi iqtisodiy rivojlanish davri mamlakat iqtisodiyoti tarixida "tez taraqqiyot" davri nomini oldi. Shu yillarda iqtisodiy o'sish yiliga o'rtacha 14 foizni tashkil qildi va "iqtisodiy mo'jiza"ga erishildi.

Natijada 1970-yillardan boshlab Yaponiya mamlakati "kunchiqar mamlakat" deb atala boshlandi. Yalpi ichki mahsulot 1955-1973-yillar oralig'ida o'rtacha 10 foiz o'sdi⁴.

Yangi tarmoqlarning rivojlanishiga hukumat tomonidan olib borilgan protektsionizm siyosati ham yordam berdi. Bu siyosat doirasida hukumat moliya institutlarining kreditlari hamda turli imtiyozli soliqlar kabi dastaklardan foydalandi. Eksportni qo'llab-quvvatlash kompleks chora-tadbirlari amalga oshirildi. Xususan, faqat tashqi savdo operatsiyalarini sug'urta qiluvchi va kreditlovchi maxsus tashkilotlar tuzildi.

1950-60-yillarda mamlakatda qattiq valyuta nazorati tizimi amal qilgan bo'lib, bu xususiy milliy kapitalning xorijga "oqib" ketishi va xo'jalikka xorijiy kapitalning kirib kelishiga to'sqinlik qilar edi. O'sha davrda Yaponiya iqtisodiyoti kapital qo'yilmalar darajasi yuqoriligi bilan ajralib turardi. Bu ko'rsatkich bir necha yillar mobaynida yuqorilab borib, 1970-yillarning birinchi yarmida sanoati rivojlangan mamlakat uchun juda katta ko'rsatkich – 39 foizga chiqdi.

Xorijiy kapitalning portfel investitsiyalar, qarzlar va zayomlar shaklida ishlatilishi jamg'arish normasining ko'tarilishiga olib keldi. Lekin 1950-1960-yillar oralig'ida xorijiy valyutadagi qo'yilmalarning yalpi kapital qo'yimlardagi ulushi 2,5 foiz atrofida bo'ldi. 1950-1975-yillar oralig'ida qariyb 32 mlrd. AQSH dollari miqdorida mablag' jalb etildi. Yangi tarmoqlarning shakllanishi va tez rivojlanishida xorijiy kapital muhim ahamiyat kasb etdi. Qarz va zayomlar Yaponiyaga AQSHning eksport-import banki tomonidan taqdim etildi.

Kapital qo'yilmalarning yuqori normasi mavjud ishlab chiqarishning qayta jihozlanishi hamda qurilishning katta hajmlarda amalga oshirilishini bildirar edi. Asosiy vositalar yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga

⁴ N.To'xliyev "Osiyo taraqqiyot modeli". –T.: "O'zbekiston", 2015. -176b.

sarflandi. Bu esa asbob-uskunalarining eng so'nggi modelda bo'lishini ta'minlab berdi. Ularning o'rtacha foydalanish muddati 5,5 – 6 yil qilib belgilandi. AQSHda esa bu ko'rsatkich 9-10 yildan iborat edi. Seriyali ishlab chiqarish esa kapital qo'yilmalarning yuqori samaradorligini ta'minladis.

1960-yillarning o'rtalarigacha ishlab chiqarish fondlari hajmi o'sishi qishloq xo'jaligidagi mehnat resurslarining ommaviy oqimi bilan ta'minlangan. Arzon, ammo yetali darajada malakaga ega bo'lgan ishchi kuchini ishlatish raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkonini bergan.

Yaponiyaning 1950-60-yillardagi xo'jalik rivojlanishi xorijdan texnik va texnologik patent va litsenziyalarni sotib olish siyosatining o'ziga xosligi bilan ham ajralib turadi. Ya'ni chet davlatlarning ilm-fan sohasidagi yutuqlaridan o'zida uncha katta bo'lmagan texnologik takomillashtirishni aks etgan mahsulot ishlab chiqarishda foydalanish keng tus oldi. Bu avvalambor moddiy va moliyaviy resurslarni tejash hamda vaqtdan yutish, shuningdek, ham anhanaviy, ham zamonaviy sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish turlarini kengaytirish imkonini berdi. Bu siyosat natijasida 1950-60-yillarda YaIM yiliga o'rtacha 11-12 foiz o'sib bordi. Yaponiya shu yillarda jahon sanoat ishlab chiqarishidagi o'z pozitsiyasini mustahkamlab oldi. 1960-yilda Yaponiyaning yalpi jahon ishlab chiqarishidagi ulushi 3 foizni tashkil etdi. 1970-yilga kelib esa bu ko'rsatkich ikki baravar oshdi va 6 foizga yetdi.

2-bosqich. 1970-yillar Yaponiya iqtisodiyotining rivojlanishida yangi sifat o'zgarishlari bilan tavsiflanadi. 1973 yil va 1978-yildagi neft inqirozlari mamlakatda resurs sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlar uchun qiyin vaziyatni yuzaga keltirdi. 1960-yillar o'rtalarida boshlangan real ish haqi darajasining oshishi mehnat xarajatlarini ko'paytirib, mehnat sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlarning raqobatbardoshligini pasaytirib yubordi. Bularning barchasi yuqori inflyatsiya sharoitida yuz berdi⁶.

1970-yillarga qadar Yaponiya sanoati rivojlangan mamlakatlar ichida ishchi kuchi arzon bo'lgan yagona davlat edi. Bu davrga kelib mamlakat xo'jaligi energiya va material tejovchi texnologiyalarga o'ta boshladi. Ishlab chiqarishda bunday o'zgarishlar sodir bo'lishiga xizmatlar sohasi rolining ortishi ham sabab bo'ldi. Natijada hukumat sanoat sohasini tubdan isloh qilishga kirishdi: 1983 yilda ayrim tarmoqlarni qayta qurish bo'yicha favqulodda chora-tadbirlar haqida qonun qabul qilindi⁷.

Shu bilan bir vaqtda, mustaqil ilmiy-tadqiqot ishlarining rivojlanishi ham boshlandi. Ham davlat, ham kompaniyalar atom energiyasidan foydalanish, fazoni o'rganish, axborot tizimlarini ishlab chiqish kabi fundamental izlanishlar olib borishda faollasha boshladilar. Xususan, Yaponiyaning ilmiy-tadqiqot tajriba-konstruktorlik ishlariga xarajatlari 1975-yilda 2,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1985 yilda bu ko'rsatkich 3,1 foizga yetdi.

⁵ N.To'xliyev "Osiyo taraqqiyot modeli". –T.: "O'zbekiston", 2015. -176b.

⁶ Statistical handbook of Japan 2014, Statistics Bureau, MIACJ, 2014, 24-bet

⁷ Лезилова Л. Н., Садыбекова Б. Д., Юлдашкуллов З. М. Экономика Японии, 1-кисм, 2011, 25-bet

1970-yillarning boshigacha mamlakat YaIM tarkibida qayta ishlash sanoati ulushi doimiy oshib bordi (1970-yilda YaIMning 6,8 foizi), keyin esa asta-sekinlik bilan kamayib bordi. Qayta ishlash sanoatining tarmoq tarkibida ham sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mashinasozlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi 1960-1973-yillarda 30,7 foizdan 56,5 foizga o'zgardi. Bunga asosan, elektrotexnika sohasining jadal taraqqiy etishi sabab bo'ldi. Yog'ochni qayta ishlash, tekstil sanoatlari ulushi sezilarsiz darajada qisqardi.

Bu davrda YaIMda qishloq xo'jaligining ulushi keskin kamaydi; 1960-1970 yillar orasida 13 foizdan 4 foizga qisqardi. Uchinchi sektorning ahamiyati ortib borib, 1985 yilga kelib YaIMda uning ulushi 60,7 foizni tashkil etdi.

1973-yilda Yaponiyada suzib yuruvchi valyuta ayirboshlash kursi tizimi joriy etildi. Natijada 22 yil davomida amalda bo'lgan valyuta kursi mexanizmi o'zgarib, yenning dollarga nisbatan qadri osha boshladi ($360 \text{ yen} = 1 \text{ dollardan}$ $308 = 1 \text{ dollarga}$). Natijada 1980-yillarning oxiriga kelib sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan o'zaro savdo balansidagi defitsit o'sib ketdi. Hukumat islohotlar o'tkazib Yaponiya Milliy Temir Yo'llari (JNR), Nippon Telegraf va Davlat Telefon Korporatsiyasi (TPC)ni davlat tasarrufidan chiqardi, ya'ni xususiy lashtirdi.

1970-80-yillarda iqtisodiy o'sish surhatlari avvalgi davrdagidan pastroq bo'ldi; 1970-yillarda o'rtacha 4,5 foiz, 1980-yillarda esa o'rtacha 4,0 foizni tashkil etdi. Lekin bu ko'rsatkichlar o'sha davrda sanoatlashgan mamlakatlarning o'rtacha ko'rsatkichlaridan yuqoriroq hisoblangan. Shu sababli Yaponiyaning iqtisodiy qudrati AQSH va SSSRdan keyingi uchinchi iqtisodiy kuch sifatida baholanardi. 1980-yillarning oxirlariga kelib Yaponiyaning milliy boyligi qiymati 1,363 trln. yenga teng bo'lib, bu ko'rsatkich YaIMning qariyb 5,6 barobarini tashkil etgan⁸.

3-bosqich. 1980-yillarning oxiriga kelib mamlakat iqtisodiyoti barqaror rivojlandi, moliyaviy va kong'yunkturaviy shart-sharoitlar mutaxassislar tomonidan yuqori baholandi. Jumladan, ulgurji savdodagi barqaror narxlar, ishsizlikning past darajasi hamda kompaniyalarning kasodga uchrash ko'rsatkichlari eng past darajalar sifatida ehtirol etildi.

Bu davrda yarimo'tkazgichlar ishlab chiqarish sohasiga kapital kiritish, investitsiyalarni mazkur soha korxonalariga yo'naltirish faollashib bordi, shu bilan birga qimmatli qog'ozlar va uy-joylar narxi keskin oshib ketdi. Natijada pul massasining asosiy qismi fond va ko'chmas mulk bozoriga oqib o'tdi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotda "sovun pufagi" holatini keltirib chiqardi. Bu pufaklar 1990-yillarda yorilishi natijasida iqtisodiyot va moliya sohasida inqiroz yuzaga keldi. Oqibatda 1997 yilda boshlangan Osiyodagi moliyaviy inqiroz Yaponiya yirik banklarini ham qiyin va murakkab vaziyatga solib qo'ydi⁹.

⁸ Statistical handbook of Japan 2014, Statistics Bureau, Ministry of Internal Affairs and Communications Japan, 2014, 25-bet

⁹ Statistical handbook of Japan 2014, Statistics Bureau, Ministry of Internal Affairs and Communications Japan, 2014, 27-bet

1990-95 yillarda jahon iqtisodiyotidagi siklik inqiroz Yaponiyaga ham katta ta'sir o'tkazdi. AQSHdan farqli ravishda Yaponiya iqtisodiyoti uchun bir qator ko'rsatkichlar retsessiya holatidan dalolat berayotgan edi. 1998-1999-yillar oralig'ida YaIM hajmi 2,8 foizga qisqardi. Shu bilan birga, ishlab chiqarishga xususiy kapital qo'yilmalari hajmi 11,7 foizga qisqardi¹⁰.

G'arb iqtisodchilarining fikriga ko'ra, bir necha o'n yillar mobaynida barqaror rivojlanib kelgan Yaponiya iqtisodiyotining ayrim tuzilmalari 1992-1995-yillarda o'zining "mo'rt" jihatlarini namoyon eta boshladi. Xususan, 1992-yilning o'zida sanoat ishlab chiqarishi hajmi qariyb 8 foizga qisqardi. Yaponiya hukumati 1992-yilning avgust oyida mamlakat tarixidagi eng yirik favqulodda iqtisodiy chora-tadbirlari dasturini qabul qildi.

2000 yilda ishsizlik 1953-yildan keyin birinchi marta eng yuqori – 4,7 foizga yetdi. Real oylik ish haqi 2 foizga qisqardi. Tabiiyki, iste'mol talabi ham 2,2 foiz qisqardi, bu ayniqsa uzoq muddatli iste'mol tovarlari bozorida yaqqol namoyon bo'ldi.

1973-yildagi neft inqirozidan keyin ilk bor sanoat ishlab chiqarishi 6,9 foizga kamaydi. Ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hajmi esa 8,2 foizga pasayib, bu investitsiyalarga talabning qisqarishi, kreditlash hajmining pasayib ketishi va kompaniyalar moliyaviy holatining yomonlashishiga olib keldi.

Yaponiya iqtisodiyotining bunday depressiya holati jahon kong'yukturasiga ta'sir etmadi. Buning asosiy sababi qilib ekspertlar ichki talabning importga bog'liqligi kamligini, ya'ni 10 foizligini ko'rsatishdi. Bu ko'rsatkich AQSHda 1995-yillarda 20 foizni tashkil etgan. Yaponiyaning eksport salohiyati ham bu yillarda kamaydi, ya'ni eksport hajmi qisqardi.

1998-yilda hukumat tepasiga kelgan yangi kabinet inqirozga qarshi chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqib, amalga oshirishga kirishdi. Bu iqtisodiy rivojlanishning istiqbolli dasturlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatini berdi.

Bu dasturlar o'z ichiga quyidagilarni qamrab oldi:

- Yaponiyani elektron davlatga aylantirish;
- yirik shaharlar atrofidagi aglomeratsiyalarning transport tizimlarini rivojlantirish;
- ijtimoiy infratuzilma yo'nalishlarini (telekommunikatsiya, ilm-fan va texnologiya, atrof-muhitni himoya qilish tashkilotlari, ijtimoiy tahminot muassasalari) yangi sifat bosqichiga ko'tarish;
- bandlik barqaror tizimini ilg'or texnologiyalarga asoslangan holda takomillashtirish.

Bu davrda iste'mol talabini rag'batlantirish maqsadida hukumat bir qator noanhanaviy choralardan ham foydalandi. Masalan, daromadi past darajada

¹⁰ Инаба Х., Цуцуми С. «Японское чудо» и советская экономическая реформа. – М.: «Шелковый путь», 1991. с.67

bo'lgan oilalarga do'konlarda tovarlar va xizmatlar xaridi uchun imtiyozli kuponlarni sotish kabilar.

Bu davr jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi boshlanishi bilan ham tavsiflanadi, inqiroz mamlakat iqtisodiyotiga quyidagicha ta'sir qildi: 2008-yilning ikkinchi yarmida iqtisodiyotda retsessiya holati boshlanib, shu yil noyabr oyida avtomobillar sotuv hajmi 27 foizga qisqardi. Bu esa 1996-yildan buyon sotuv hajmi qisqarishidagi eng past ko'rsatkich edi. 2008-yil yakunlariga ko'ra mamlakat YaIM hajmi 1,2 foizga qisqardi.

4-bosqich. 2009-moliya yilining yakunlariga ko'ra, Yaponiya nominal yalpi ichki mahsulot hajmi 5 trln. AQSH dollaridan ortiq bo'lib, bu ko'rsatkich bo'yicha jahonda AQSHdan keyin ikkinchi o'rinni egallagan edi,. Ammo 2010 yilning avgustiga kelib mutaxassislar Xitoy iqtisodiyoti bu ko'rsatkich bo'yicha Yaponiyani ortda qoldirganligi ma'lum qildilar. Shunga qaramasdan, mamlakat iqtisodiyoti o'sha yili 4 foizga o'sdi, bu ko'rsatkich 2009-yilda 6,0 foizni tashkil etgandi¹¹.

So'nggi bosqich jahon iqtisodiyotining globallashuvi va integratsiyalashuvi sharoitida kechmoqda. Yaponiya iqtisodiyoti uchun bu bosqich o'z qudratini tiklashga bo'lgan urinishlar natijasini o'z ichiga olishi kutilmoqda.

2010-yilga qadar Yaponiya jahonda ikkinchi iqtisodiyot bo'lgani hech kimga sir emas. Ammo so'nggi bir necha yillardan buyon mamlakat bir necha iqtisodiy muammolar markaziga aylanib qolmoqda. Lekin bu muammolarning paydobo'lishi ancha uzoq davrlarga borib taqaladi. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin¹²:

1. Iste'mol:

- So'nggi yigirma yilda o'sish sur'atlarining o'rtacha 0 foizdan oshmaganligi;
- Mamlakat iste'mol hajmining deflyatsiya oqibatida turg'un holatga kelib qolganligi;
- Davlat qarzlar hajmining tinmay o'sib borayotgani;
- 2011-yilgi Buyuk Sharqiy Yaponiya zilzilasi hamda 2012-yilgi retsessiya natijasida iqtisodiyotda de'ressiya kayfiyatining saqlanib qolishi;

2. Monetar vaziyat:

- Uzoq muddatli deflyatsiya;
- Eksportga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan o'ta barqaror iyena kursi.

3. Bandlik:

- Nisbatan ishsizlikning past darajasi, ammo demografik vaziyat bilan bog'liq bir qator omillar ta'sirining namoyon bo'lishi;
- Ayrim sohalarda mehnat resurslarining tanqisligi, xususan, qurilishda;
- Bandlikda ayollar ishtirokining past darajasi.

¹¹ Деловая Япония, тома XIV-XV. Экономика и связи с Россией в 2007-2009 гг. – М.: «ПОЛПРЕД Справочники», 2009. – 448 стр.


¹² Austin, "The 3 Arrows of Abenomics Explained"

- Qishloq xo'jalagi sohasida band bo'lganlar yoshining qarib, sonining kamayib borayotganligi.

Yuqorida sanab o'tilganidek, mamlakat iqtisodiyoti mana bir necha yildirki barqaror iqtisodiyot maqomini qo'ldan boy berib turg'un holatga tushib qolgan.

1.2-diagramma.

Yaponiya iqtisodiyoti o'sish dinamikasi




Quyidagi 1.2-diagrammada Yaponiyaning 1981-yildan 2012-yilgacha¹³ bo'lgan vaqt oralig'i uchun yillik o'rtacha o'sish darajasi taqqoslangan. 2008-2012-yillar oralig'ida bu ko'rsatkich manfiy darajada bo'lib, 2000-yildan 2012-yilgacha davrda o'rtacha o'sish sur'ati 0,67 foiz ni tashkil etgan. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining turg'unlik holatida ekanidan dalolat beradi. Undan tashqari, diagrammadan ko'rinib turibdiki, real o'rtacha o'sish sur'atlari dinamikasi o'ta notekis bo'lib, ayniqsa birinchi davr va ikkinchi davr o'rtasidagi farq ancha katta. Sababi birinchi davr mamlakatda "sovun 'ufagi yillari"ni o'z ichiga olgani holda, ikkinchi davr uning yorilishi natijasini ko'rsatmoqda. 2008-2012-yillar oralig'i uchun bu darajaning keskin tushib ketishiga 2008-yilgi Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamda 2011-yilda Yaponiyadagi zilzila oqibatlarini ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bu davrda Yaponiyaning iqtisodiy salohiyatini taraqqiy etgan mamlakatlar orasida yanada kuchaytirish maqsadida "Abenomika" dasturi ishlab chiqildi.

"Abenomika"ning ishlash mehanizmi keltirilgan bo'lib, inflyatsiya ishlab chiqarish, kompaniyalar va oilalar daromadlari, va eng asosiysi, mamlakat ichidagi talab darajasini ko'tarishda asosiy dastak vazifasini o'tashi nazarda tutilgan.

¹³ Izoh. Abenomika 2013 yildan boshlanganligi sababli, 2012-yilgacha ma'lumotlar olindi

Abenomika doirasida iqtisodiy qayta tiklanish modelining ishlash mexanizmi



Shunday qilib, “Abenomika” Yaponiya uchun iqtisodiyotni qayta jonlantirish chora-tadbirlari va Bosh Vazir Shindzo Abening yangi “iqtisodiy eksperiment”i sifatida paydobo’ldi. “Abenomika” rasman iqtisodiyot te’asiga kelganidan buyon jahonning turli iqtisodchi-analitik olimlari tomonidan bahs-munozaralarga sabab bo’lmoqda. Masalan, iqtisodiyot bo’yicha Nobel mukofoti laureati Djozef Stiglits “roject Syndicate”dagi o’z maqolasida “Abenomika” Yaponiyani jahon iqtisodiyotida “yorug’lik nuri”ga aylantirishiga ishonch bildirsa, AQShning yetakchi reyting agentliklari 2014-yil dekabr oyi boshlarida S&P va Moody’s Yaponiya iqtisodiyotiga nisbatan ishonchsizlik kayfiyatida ekanliklarini namoyon qildilar¹⁴.

Eng katta muammo Yaponiya davlat qarzlariga nisbatan hajmining bir bir necha o’n yillar davomida tinmay o’sib borayotganidir. Bu ko’rsatkich bo’yicha Yaponiya “Katta yigirmalik” mamlakatlari orasida birinchi o’rinini egallab oldi. Yaponiya davlat qarzining dinamikasini tahlil qilar ekanmiz, u so’nggi yigirma yil ichida o’sish tendensiyasida tinmay davom etib kelayotganini ko’ramiz. 1992-yilda Yaponiya davlat qarzi mamlakat YaIMning 66,5 foizi darajasida bo’lgan bo’lsa, 2012-yilda bu ko’rsatkich YaIMning ikki baravaridan oshib ketganini ko’rishimiz mumkin – 211,7 foiz¹⁵.


¹⁴ “Эксперты: "Абэномика" пока не принесла желаемых результатов”, www.rosbalt.ru axborot agentligi, 2014, dekabr

¹⁵ www.tradingeconomics.com /Ministry Of Finance Japan

1.3-diagramma

Jahonning ayrim mamlakatlari, davlat qarzlar bo'yicha

Mamlakatlar yalpi davlat qarzlar YaIMga nisbatan, foizda




Manba. Xalqaro Valyuta Fondi ma'lumotlari asosida Bloomberg jurnali tomonidan tuzilgan

Agar Yaponiya davlat qarzlarining 2012-yildagi tarkibiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, undagi uchta asosiy soha jami harajatlarning qariyb 70foizdan ortig'ini tashkil etayotganining guvohi bo'lamiz (1.2-rasm). Bular: ijtimoiy ximoya (29,2 foiz), davlat qarzlar bo'yicha majburiyatlarni bajarish (24 foiz) soliqliq tushumlarini mahalliy qayta taqsimlash (18,4 foiz).

1.2-rasm

2012-moliya yili uchun Yaponiya davlat budjeti harajatlari tarkibi



Manba. "Highlights of the Budget for 2012 FY", Yaponiya Moliya Vazirligi

"Abenomika"ning egiluvchan fiskal siyosati eng avvalo davlat qarzlarini qisqartirishga qaratilgan. Buning uchun iste'molchilardan undiriladigan soliqlik stavkasini bosqichma-bosqich ko'tarib borish rejalashtirilgan.

Fiskal siyosat oldiga har moliya yili uchun "Rag'batlantiruvchi moliyaviy vositalar" ajratilib 2013-yil uchun ular quyidagicha qiymatni tashkil etdi.

Yaponiya iqtisodiyotini jonlantirish favqulotda iqtisodiy chora-tadbirlari Dasturini amalga oshi uchun yo'naltirilgan moliyaviy mablag'lar

<i>Har ajatlar guruhlanishi</i>	<i>Mablag'lar yo'naltirilgan soha</i>	<i>Trilion iyena (taxminan)</i>	
		<i>Markaziy hukumat harajatlari</i>	<i>Jami ajratiladigan mablag'</i>
A	1. Zilziladan keyingi rekonstruksiya va tabiiy ofatni oldini olish chora-tadbirlari	3,8	5,5
	Buyuk Sharqiy Yaponiya zilzilasidan zarar ko'rgan hududlarni qayta tiklash sur'atlarini tezlashtirish	(1.6)	(1.7)
	tabiiy ofat asoratlarini susaytirish va kelgusida paydobo'lishini oldini olish	(2.2)	(3.8)
B	2. Iqtisodiy o'sishni ta'minlash orqali milliy boylikni yaratish	3,1	12,3
	yuqori o'sish sur'atlariga erishish uchun xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish	(1.8)	(3.2)
	kichik va o'rta biznes subyektlari, shuningdek, qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va baliqchilik tarmoqlarida chora-tadbirlar	(0.9)	(8.5)
	chet elda faoliyat yuritayotgan mahalliy tadbirkorlar biznesini kengaytirishini qo'llab-quvvatlash	(0.1)	(0.3)
	inson Kapitalini rivojlantirish va ishsizlikka qaratilgan chora-tadbirlar	(0.3)	(0.3)
C	3. Kundalik hayotda aholi orasida xavfsizlik hissini uyg'onishini ta'minlash hamda hududlarni qayta jonlantirish	3,1	2,1
	kundalik hayot havfsizligini ta'minlash	(0.8)	(0.9)
	hududlarni qayta jonlantirish	(0.9)	(1.2)
D	Mahalliy hukumat fondlariga yordam ko'rsatish va favqulotda iqtisodiy choralarni tez sur'atlarda hayotga tadbir etilishini ta'minlash	(1.4)	
E	Uzoqmuddatli qurilish loyihalariga milliy subsidiylar ajratishni majburiy kafolatlash	0,3	0,3
Iqtisodiy chora-tadbirlarga yo'naltirilgan jami mablag'lar		10,3	20,2
F	Davlat 'ensiyalarining 50foiz miqdoridagi hajmiga hukumat tomonidan kiritiladigan moliyaviy mablag'lar	2,8	
Jami mablag'		13,1	

Izoh. Markaziy hukumat harajatlari 0,4 trilion iyena miqdoridagi fiskal investitsiyalar hamda zayom daturlarini o'z ichiga oladi.

Manba.Yaponiya Bosh vaziri va uning Kabineti web-sayti arxivi:
<http://japan.kantei.go.jp/96abe/documents/index.html>

Yaponiya joriy hukumatining 2014-yil 11-yanvarda e'lon qilingan "Yaponiya iqtisodiyotini jonlantirish favqulotda iqtisodiy chora-tadbirlari" Dasturi har uchchala o'q uchun birlamchi umumiy chora-tadbirlarni nazarda tutadi:

1. Buyuk Sharqiy Yaponiya zilzilasi natijasida zarar ko'rgan hududlarni qayta tiklashga qaratilgan chora-tadbirlarni tezlashtirish hamda tabiiy ofat ta'sirining kuchayib borishini oldini olish.

1.1. Zarar ko'rgan hududlarni qayta tiklash harakatlarini tezlashtirish va mavjud chora-tadbirlar tizimini kuchaytirish

1.2. Ijtimoiy infratuzilmaning intensiv qarib borishini yo'qotish hamda sanoat va daromadlar bazasini kuchaytirish yo'li bilan milliy infratuzilma chidamliligini oshirish.

2. Iqtisodiyot va fiskal siyosatni egiluvchan boshqarish siyosati.

2.1. Deflyatsiya kutilishini uni iloji boricha tezroq yo'q qilishga kuchli xohish hamda qat'iy maspuliyaatni belgilash vositasida yo'qotish.

2.2. Yaponiya iqtisodiyoti kelajagini qo'llab-quvvatlashda katta potensialga ega bo'lgan hamda barqaror o'sishni ta'minlaydigan sohalarga avzalliklar berish. Ayniqsa, iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir eta oladigan va katta iste'mol talabi effektini yarata oladigan chora-tadbirlarga alohida urg'u berish.

2.3. Davlat investitsiyalarini aholi turmush va daromadini muhofaza qiluvchi, shuningdek, ma'muriy birliklar jonlanishi va o'sishini ta'minlovchi loyihalarga yo'naltirish

2.4. Yaponiya hukumati va Yaponiya Banki (BOJ) o'rtasida koordinatsiyani mustahkamlash uchun sharoit yaratish. Inflyatsiyaning aniq maqsadli darajasini ko'zlab Yaponiya Banki tomonidan monetary siyosatni keskin yumshatish.

2.5. Xorijiy valyuta ayirboshlash bozoridagi tendensiyalarni ehtiyotkorlik bilan tahlil qilish va muqobil yechimni izlash.

3. Iqtisodiy o'sish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish.

3.1. "Jahonda biznes uchun eng do'stona mamlakat", "Bandlik va daromad barqaror o'suvchi hamda shaxning butun potentsiali to'liq namoyon etila oladigan mamlakat" konse'siyasi bilan "to'yingan" millatni yaratish. Shuningdek, "Savdoga yo'naltirilgan mamlakat" va "Sanoat investitsiyalariga yo'naltirilgan mamlakat" kabi ikki dvigatelda ishlovchi "Gibrid iqtisodiyot"ni barpo etish.

3.2. Biznes va innovatsiyalar sohasiga kiritiladigan investitsiyalarni rag'batlantirish, xorijiy bozorlarda faoliyat yurituvchi Yapon kompaniyalarining kengayishiga ko'maklashish, yangi ish o'rinlari yaratish va yangi bozorlarni egallash, inson Kapitalini rivojlantirish omilini mustahkamlash va yosh avlod uchun ish o'rinlarini ko'paytirish, atrof-muhitni yaxshilash.

3.3. Yuqori o'sish potentsialiga ega bo'lgan huudlar uchun dadil qonunchilik va institutsional islohotlarni amalga oshirish tizimini ishlab chiqish.

Hukumat te'asiga yangi Bosh Vazir Shindzo Abening kelishi va o'z yangi dasturi doirasida iqtisodiyotni isloh qilishni boshlaganiga ikki yil bo'ldi. Yaponiya iqtisodiyoti bu davrda erishgan iqtisodiy natijalar quyidagi 1.2-jadvalda keltirilgan:

1.2-jadval


Yaponiya iqtisodiy ko'rsatkichlari

	012	013	014	015	016	2017 (reja)
Nominal YaIM o'sishi, foiz	,2	,6	,1	,8	,5	2,5
Nominal YaIM, trln. Yen	94,7	07,1	17,9	02,2	40,2	553,5
Real YaIM o'sishi, foiz	,9	,6	0,4	,3	,30	1,5
Isteomolchilar narx indeksi, foiz	0,3	,9	,9	,2	,0	1,1
Ishsizlik darajasi, foiz	,3	,9	,5	,3	,1	2,9

Manba: FY2016 and FY2017: based on "FY 2017 Economic Outlook and Basic Stance for Economic and Fiscal Management" (Approved by the Cabinet on December 20, 2016).

Yaponiya iqtisodiyoti nominal YaIM ko'rsatkichlari bo'yicha jahonda uchinchi, iste'mol qobiliyati pariteti bo'yicha esa to'rtinchi o'rinni egallab kelmoqda. Jahon Bankining 2016-yilgi hisobotiga ko'ra Yaponiya YaIM hajmi 4,525 trillion AQSH dollarini tashkil etdi (4 525 563 000 AQSH dollari)¹⁶. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining manbalariga ko'ra rivojlangan mamlakatlar guruhida ikkinchi o'rinni Yaponiya egallaydi.¹⁷ Xalqaro Valyuta Fondining ma'lumotlariga ko'ra, Yaponiyada aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM hajmi 2016-yilda 36,2 ming AQSH dollarini tashkil etib, bu jahon mamlakatlari bo'yicha 22-eng yuqori ko'rsatkichdir. Yaponiya Katta sakkizlik guruhi a'zosi¹⁸. Tarixan "yapon mo'jizasi" fenomeni bilan qisqa sur'atlarda vayron iqtisodiyotdan barqaror iqtisodiyot darajasiga ko'tarila olgan mamlakat¹⁹.

1.4-diagramma

Yaponiya YaIM ko'rsatkichlari (mlrd dollar da)

Manba: Trading economics.com; The World Bank Group

¹⁶"GDP (current US\$)". [World Bank](http://www.worldbank.org). Retrieved 15 October 2016.

¹⁷"Country statistical profile: Japan". OECD iLibrary. 28 February 2016. Retrieved 19 June 2016.


¹⁸X. M. Mamatqulov, "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar", Toshkent, 2008, 8-bet

¹⁹B. Yu. Xodiyev, "O'zbekiston iqtisodiyoti: erishilgan yutuqlar, muammolar va rivojlanish istiqbollari", ma'ruzalar to'plami, 2008-yil, 129-bet

Agar Yaponiya davlat qarzlarining 2017-yildagi tarkibiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, undagi uchta asosiy soha jami harajatlarning qariyb 70 foizdan ortig'ini tashkil etayotganining guvohi bo'lamiz (1.3-rasm). Bular: ijtimoiy ximoya (33,3 foiz), davlat qarzlar bo'yicha majburiyatlarni bajarish (24,1foiz) soliq tushumlarini mahalliy qayta taqsimlash (16 foiz).

1.3-rasm

2017 moliya yili uchun Yaponiya davlat byudjeti harajatlari tarkibi



Manbaa. "Highlights of the Budget for 2017 FY", Yaponiya Moliya Vazirligi

Umuman, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ko'rib chiqilgan masalalar bu mamlakatning qisqa surhatlarda vayron iqtisodiyotdan jahon tan olgan "Ikkinchi iqtisodiyot" darajasigacha ko'tarilganligi haqida batafsil ma'lumotni bersa, ularni umumlashtirib bunday "Yapon mo'jizasi"ga sabab bo'lgan omillardan yapon xalqining mehnatkashligi, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi, iqtisodiyotni tartibga solishda davlatni alohida o'rnining mavjudligini aytib o'tish lozim.

Xulosa qilib shuni aytilish mumkinki, Yaponiyada davlat iqtisodiy siyosatining samaradorligi oshishiga bosh vazir Shinzo Abe tashabbusi bilan amalga oshirilgan abenomika siyosati katta ta'sir ko'rsatdi. Bugungi kunda mutaxassislar va yetakchi eks'ertlar Yapon moliyaviy muassasalari Kapitalining likvidlik darajasini, moliya tizimining iqtisodiy-konyunkturaviy o'zgarishlarga tez moslasha olish darajasini va barqarorligini ham yuqori baholashmoqda. Bu chet el valyuta-pul munosabatlarida yuzaga keladigan xavf-xatarlarning oldini olishga ham imkon beradi, deb hisoblash mumkin.